



# CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

## Asosiy tarkib



Yirik korxonalar




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


## Dastlabki ma'lumotlar

Respublika bo'yicha 2022-yilning yanvar-noyabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **9390,1** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **12,5%** ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **703,2** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **135,7**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **8686,9** mlrd. so'mni (**10,9%** ga o'sdi), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1092,3** mlrd. so'mni (**118,9%** ni) tashkil etdi.

## Tarkibiy qism, ulushlarda



## O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



## Uyushmagan savdo, mlrd. so'm






# HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm

## UMUMIY MA'LUMOT


Respublika bo'yicha 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **9390,1** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **12,5** % ni tashkil etdi.



Respublikamiz chakana savdo tovar aylanmasida Nukus shahri va tumanlarida o'sish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **92,5** % va yirik korxonalar hissasiga **7,5** % to'g'ri keldi.

## ENG YUQORI ULUSH

Respublika chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Nukus shahri **30,0** % ulush bilan **2821,1** mlrd. so'mni tashkil etdi.



## ENG QUYI ULUSH

Respublika chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Bo'zatov tumani **0,7** % ulush bilan **70,3** mlrd. so'mni tashkil etdi.



**YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY  
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA  
SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda**



Nukus shahri Amudaryo Beruniy Bo'zatov Qonliko'l Qorao'zak Kegeyli Qo'ng'iro't Mo'ynoq Nukus Taxiato'sh Taxtako'pir To'rtko'l Xo'jayli Chimboy Shumanay Ellikqal'a



Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2022- yil yanvar-noyabr oylari yakuniga ko'ra, **8686,9** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **110,9%** ga o'sgan. Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **92,5 %** ni tashkil etdi.


Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Qorao'zak (99,6 %), Kegeyli (99,5 %), Qonliko'l (99,8 %), Mo'ynoq (99,4 %), Taxtako'pir (99,6 %), Bo'zatov (99,6 %), Nukus (99,5 %) va Shumanay tumanlarida (99,6 %) yuqori bo'lgan.





2022- yilning yanvar-noyabr oylarida nisbatan respublikaning Qonliqo'l tumanidan tashqari barcha tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan Nukus shahri (111,9%), Kegeyli (117,2%), To'rtko'l (119,8%), Nukus (123,1%) va Taxtako'pir (114,5%), tumanlarida qayd etildi.

**Chakana savdo aylanmasining o'zgarish sur'atlari, foizda**





	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, foizda
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>9390,1</b>	<b>112,5</b>	<b>703,2</b>	<b>135,7</b>	<b>8 686,9</b>	<b>110,9</b>
<b>Nukus shahri</b>	<b>2 821,1</b>	<b>111,9</b>	<b>541,9</b>	<b>161,2</b>	<b>2 279,2</b>	<b>104,3</b>
<i>tumanlar:</i>						
Amudaryo	686,6	109,9	15,0	60,5	671,7	112,0
Beruniy	792,3	109,9	39,2	179,9	753,2	107,7
Bo'zatov	70,3	109,7	0,3	73,8	70,0	109,9
Qorao'zak	312,2	111,7	1,1	93,7	311,1	111,8
Kegeyli	271,3	117,2	1,2	103,3	270,1	117,2
Qo'ng'iroq	659,2	114,2	15,9	57,1	643,3	117,0
Qonliqo'l	260,1	108,9	0,6	90,6	259,5	108,9
Mo'ynoq	84,7	115,3	0,5	108,4	84,2	115,3
Nukus	214,7	123,1	1,1	107,3	213,6	123,2
Taxiatosh	269,7	109,8	20,3	57,6	249,4	118,5
Taxtako'pir	201,1	114,5	0,9	65,9	200,3	114,9
To'rtko'l	952,7	119,8	30,1	105,5	922,6	120,3
Xo'jayli	777,2	110,0	13,1	87,1	764,2	110,4
Chimboy	340,2	111,4	9,6	102,2	330,7	111,7
Shumanay	183,4	109,0	0,8	87,3	182,6	109,1
Ellikqal'a	493,1	110,9	11,8	95,0	481,3	111,4

# CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI


## Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga  
ega tumanlar, foizda



## Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

Eng yuqori ulushga  
ega tumanlar, foizda



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **135,7%** ni va **703,2** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **7,5 %** ulushiga to'g'ri keladi.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblariga ko'ra, **8686,9** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **110,9%** ga o'sdi. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **92,5 %** ni tashkil etdi.




**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,  
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK  
SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**

Nukus sh.	19,2	80,8
Ellikqal'a	2,4	97,6
Shumanay	0,4	99,6
Chimboy	2,8	97,2
Xo'jayli	1,7	98,3
To'rtko'l	3,2	96,8
Taxtako'pir	0,4	99,6
Taxiatosh	7,5	92,5
Nukus	0,5	99,5
Mo'ynoq	0,6	99,4
Qonliko'l	0,2	99,8
Qo'ng'iro't	2,4	97,6
Kegeyli	0,5	99,5
Qorao'zak	0,4	99,6
Bo'zatov	0,4	99,6
Beruniy	4,9	95,1
Amudaryo	2,2	97,8

■ Yirik korxonalar

■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik


Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Qorao'zak (99,6 %), Bo'zatov (99,6 %), Qonliko'l (99,8 %) va Taxtako'pir (99,6 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 7,5% ni tashkil etib, eng katta ulush Nukus shahrida (19,2%), Taxiato'sh tumanida (7,5%), Beruniy (4,9%) va To'rtko'l (3,2%) tumanlarida kuzatildi.



**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI BO'YICHA AHOLI  
JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR  
AYLANMASI HAJMI VA O'ZGARISH SUR'ATLARI**

2022- yilning yanvar-noyabr oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **4792,1** ming so'm (2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 10,9% ga o'sdi), Nukus shahri, To'rtko'l, Beruniy, Taxtako'pir, Shumanay, Qorao'zak, Chimboy va Ellikqal'a tumanlari aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi yuqori ko'rsatkichlarida o'sish sur'atlari kuzatildi.

Aholi jon boshiga ko'rsatkichlarni tumanlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Nukus shahri (8515,2 ming so'm), Qorao'zak (5803,0 ming so'm) va Taxtako'pir (4942,0 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.




	Hajm, ming so'm	2021- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, % da
Qoraqalpog'iston Respublikasi	4 792,1	110,9
Nukus shahri	8 515,2	109,9
<i>tumanlar:</i>		
Amudaryo	3 331,6	108,0
Beruniy	3 985,5	108,1
Bo'zatov	3 208,5	109,2
Qorao'zak	5 803,0	110,7
Kegeyli	3 676,8	116,4
Qo'ng'iro't	4 941,4	112,9
Qonliko'l	4 944,6	107,4
Mo'ynoq	2 550,0	113,2
Nukus	4 113,7	121,2
Taxiatosh	3 557,9	108,5
Taxtako'pir	4 942,0	113,9
To'rtko'l	4 283,9	117,8
Xo'jayli	6 158,6	108,6
Chimboy	2 973,9	110,5
Shumanay	3 206,3	108,1
Ellikqal'a	2 976,1	109,0

## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

### Asosiy tarkib, foizda




Dehqon bozorlari




Chorva (parranda) bozorlari

Respublika bo'yicha 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1092,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **118,9%** ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12-bozor va 12-bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarining sotish hajmi **670,7** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **184,9%**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **421,6** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **75,9%**) tashkil etdi.


### O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



### Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



### Eng yuqori ulushga ega hududlar





**UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON\* VA  
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO  
AYLANMASI HAJMI VA O'ZGARISH SUR'ATLARI**

2022- yilning yanvar-noyabr oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **670,7** mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida **421,6** mlrd. so'mni tashkil etdi.



\* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT)ni qo'shmagan holatda

\* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>1092,3</b>	<b>118,9</b>	<b>670,7</b>	<b>184,9</b>	<b>421,6</b>	<b>75,9</b>
<b>Nukus shahri</b>	143,7	74,3	88,2	113,1	55,5	48,0
<i>tumanlar:</i>						
<b>Amudaryo</b>	94,8	120,6	58,2	182,9	36,6	78,2
<b>Beruniy</b>	77,0	96,6	47,3	158,8	29,7	59,5
<b>Bo'zatov</b>	25,1	137,7	15,4	203,6	9,7	91,2
<b>Qorao'zak</b>	45,2	114,7	27,7	188,5	17,4	71,0
<b>Kegeyli</b>	70,2	148,7	43,1	209,2	27,1	101,9
<b>Qo'ng'iro't</b>	92,5	118,8	56,8	178,6	35,7	77,5
<b>Qonliko'l</b>	47,0	123,1	28,9	260,4	18,2	67,1
<b>Mo'ynoq</b>	15,1	302,1	9,3	391,3	5,8	224,6
<b>Nukus</b>	58,4	298,1	35,9	609,5	22,6	164,7
<b>Taxiatosh</b>	32,6	111,3	20,0	146,3	12,6	80,7
<b>Taxtako'pir</b>	40,6	204,0	24,9	379,3	15,7	118,2
<b>To'rtko'l</b>	136,8	218,4	84,0	365,5	52,8	133,3
<b>Xo'jayli</b>	66,4	63,8	40,8	91,2	25,6	43,2
<b>Chimboy</b>	78,9	163,4	48,4	272,6	30,5	99,6
<b>Shumanay</b>	24,6	118,6	15,1	173,6	9,5	79,3
<b>Ellikqal'a</b>	43,4	119,8	26,6	183,8	16,7	77,0



19,0  
mlrd. so'm

Tuzlamalar



373,3  
mlrd. so'm

Yangi uzilgan qishloq  
xo'jaligi mahsulotlari



21,6  
mlrd. so'm

Quritilgan qishloq  
xo'jaligi mahsulotlari  
(yong'oq, bodom, pista va  
boshqalarni qo'shgan holda)

60,9  
mlrd. so'm



Non va non  
mahsulotlari



23,9  
mlrd. so'm

Sut va sut  
mahsulotlari

29,5  
mlrd. so'm



Tuxum

75,9  
mlrd. so'm



Don mahsulotlari (mosh,  
loviya, no'xat, guruch va  
boshqalar)

18,3  
mlrd. so'm



Chorva mollari va  
parrandalar uchun har xil  
yem-hashaklar

7,4  
mlrd. so'm



Gullar, o'simlik va nihol  
ko'chatlari (manzarali va  
qishloq xo'jaligi)

55,3 mlrd.  
so'm



Ziravorlar

14,4  
mlrd. so'm



Tovuq go'shti

2022- yilning yanvar-noyabr oylarida respublikaning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **670,7** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**373,3** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

**UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI:  
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI**


2022- yilning yanvar-noyabr oylarida respublikaning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **421,6** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi **336,7** mlrd. so'mni, qo'y va echkilar **71,4** mlrd. so'mni, otlar **9,9** mlrd. so'mni, parrandalar **3,6** mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:





2022- yilning yanvar-noyabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,1 % ni tashkil etib, 197,7 mlrd. so'mga yetdi va 2021-yil yanvar-noyabr oylarida nisbatan 106,5% ni tashkil etdi.. Bunda jami savdo aylanmasining 99,7 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining o'zgarish sur'atlari, foizda



	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>197,7</b>	<b>106,5</b>	<b>0,5</b>	<b>10,4</b>	<b>197,1</b>	<b>109,2</b>
<b>Nukus shahri</b>	82,7	108,9	0,5	97,0	82,1	109,0
<i>tumanlar:</i>						
Amudaryo	8,8	108,1	-		8,8	108,1
Beruniy	6,1	114,7	-		6,1	114,7
Bo'zatov	0,5	115,7	-		0,5	115,7
Qorao'zak	5,5	115,4	-		5,5	115,4
Kegeyli	2,3	100,0	-		2,3	100,0
Qo'ng'iro't	45,0	95,6	-		45,0	105,9
Qonliko'l	3,0	108,4	-		3,0	108,4
Mo'ynoq	0,8	110,6	-		0,8	110,6
Nukus	1,8	113,6	-		1,8	113,6
Taxiatosh	5,1	126,4	-		5,1	126,4
Taxtakopir	1,2	102,9	-		1,2	102,9
To'rtko'l	12,4	110,7	-		12,4	110,7
Xo'jayli	11,3	109,5	-		11,3	109,5
Chimboy	5,4	109,6	-		5,4	109,6
Shumanay	0,9	109,3	-		0,9	109,3
Ellikqal'a	4,9	116,9	-		4,9	116,9

2021- yil  
yanvar-noyabr

2022- yil  
yanvar-noyabr



Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi **197,7** mlrd. so'm (o'zgarish sur'ati 106,5%) va mulkchilik shakllari bo'yicha **197,7** mlrd. so'm nodavlat mulkka (100,0%) to'g'ri keldi.

	Jami, mln. so'm	Ulushi, foizda	Nodavlat mulki, mln. so'm	Ulushi, foizda	Davlat mulki, mln. so'm	Ulushi, foizda
Qoraqalpog'iston Respublikasi	197 659,6	100,0	197 659,6	100,0	-	-
Nukus shahri	82 656,7	41,8	82 656,7	100,0	-	-
<i>tumanlar:</i>						
Amudaryo	8 767,6	4,4	8 767,6	100,0	-	-
Beruniy	6 098,4	3,1	6 098,4	100,0	-	-
Bo'zatov	522,0	0,3	522,0	100,0	-	-
Qorao'zak	5 483,7	2,8	5 483,7	100,0	-	-
Kegeyli	2 266,7	1,1	2 266,7	100,0	-	-
Qo'ng'iro't	44 970,6	22,8	44 970,6	100,0	-	-
Qonliko'l	3 047,1	1,5	3 047,1	100,0	-	-
Mo'ynoq	776,4	0,4	776,4	100,0	-	-
Nukus	1 841,2	0,9	1 841,2	100,0	-	-
Taxiatosh	5 060,5	2,6	5 060,5	100,0	-	-
Taxtakopir	1 249,3	0,6	1 249,3	100,0	-	-
To'rtko'l	12 371,6	6,3	12 371,6	100,0	-	-
Xo'jayli	11 287,4	5,7	11 287,4	100,0	-	-
Chimboy	5 447,6	2,8	5 447,6	100,0	-	-
Shumanay	915,2	0,5	915,2	100,0	-	-
Ellikqal'a	4 897,6	2,5	4 897,6	100,0	-	-

## ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

### Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Respublika bo'yicha 2022-yilning yanvar-noyabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **2551,1** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **4,2%** ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **368,5** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **71,1 %**), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **2182,6** mlrd. so'mni (**13,1%** ga o'sdi) tashkil etdi.

### O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Yirik korxonalar

Mikrofirma va kichik korxonalar

### Savdo aylanmasi hajmi va ulushi

Ulgurji savdo

2551,1 mlrd. so'm, 100 %


Yirik korxonalar

368,5 mlrd. so'm, 14,4%

Mikrofirma va kichik korxonalar

2182,6 mlrd. so'm, 85,6%

### Eng yuqori ulushga ega hududlar



Beruniy

To'rtko'l

Taxiatosh

Nukus shahar




**ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR  
VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA  
O'ZGARISH SUR'ATLARI**

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Taxiatosh tumanida (106,9%) Nukus shahrida (18,6%) kuzatildi.

Ulgurji tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari nisbatan yuqori o'zgarish sur'atlari Mo'ynoq (716,0%), Kegeyli (112,9%), va Amudaryo (126,4%) tumanlarida qayd etildi.


**Ulgurji savdo aylanmasi o'zgarish sur'atlari, foizda**



	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>2 551,1</b>	<b>104,2</b>	<b>368,5</b>	<b>71,1</b>	<b>2 182,6</b>	<b>113,1</b>
<b>Nukus shahri</b>	<b>1 211,2</b>	<b>100,5</b>	<b>38,7</b>	<b>18,6</b>	<b>1 172,4</b>	<b>117,5</b>
<i>tumanlar:</i>						
Amudaryo	58,7	120,8	-		58,7	126,4
Beruniy	161,2	102,9	-		161,2	102,9
Bo'zatov	5,0	105,4	-		5,0	105,4
Qorao'zak	30,1	102,1	-		30,1	102,1
Kegeyli	2,2	112,9	-		2,2	112,9
Qo'ng'iro't	74,6	103,2	-		74,6	103,2
Qonliko'l	43,0	103,3	-		43,0	103,3
Mo'ynoq	51,1	716,0	-		51,1	716,0
Nukus	135,3	102,5	-		135,3	102,5
Taxiatosh	377,7	107,0	329,7	106,9	48,0	107,4
Taxtako'pir	23,3	103,6	-		23,3	103,6
To'rtko'l	165,0	101,9	-		165,0	101,9
Xo'jayli	42,3	103,9	-		42,3	103,9
Chimboy	45,9	101,8	-		45,9	101,9
Shumanay	0,9	103,4	-		0,9	103,6
Ellikqal'a	123,7	100,6	-		123,7	100,6



# YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



RK Nukus shahri Amudaryo Beruniy Bo'zatov Qonliko'l Qorao'zak Kegeyli Qo'ng'iro't Mo'ynoq Nukus Taxiatosh Taxtako'pir To'rtko'l Xo'jayli Chimboy Shumanay Ellikqal'a



2021- yil yanvar-noyabr  
2022- yil yanvar-noyabr


Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2022-yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, **2182,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **113,1%** ni tashkil etdi. Jami ulgurji savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **85,6%** ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Beruniy, Bo'zatov, Qorao'zak, Kegeyli, Qo'ng'iro't, Qonliko'l va Ellikqal'a tumanlarida yuqori bo'lgan. Eng past ulush esa Taxiatosh (12,7%) tumaniga to'g'ri keldi.



## MULKCHILIK SHAKLI BO'YICHA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

So'nggi yillarda ulgurji savdoda davlat sektorining o'ri pasayib bormoqda. 2022- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlari bo'yicha ulgurji savdo aylanmasi **2551,1** mlrd. so'mni tashkil etib, shu jumladan nodavlat tasarrufiga ega subyektlar tomonidan ulgurji savdo aylanmasi **2551,1** mlrd. so'mni tashkil etdi.



Hududlar kesimida barcha hududlarda ulgurji savdo to'liq nodavlat mulkka tegishli.